

25-Mart, 2025-yil

SENSOR, TAYANCH-HARAKAT INTELLEKT VA NUTQ BUZILISHLARI QO‘SHILIB KELGAN MUJASSAM NUQSONLI BOLALAR

Maxmudova Gulxumor Farkod qizi

Jizzax davlat Pedagogika Universiteti

Pedagogika va psixologiya: Logopediya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sensor, tayanch-harakat, intellekt va nutq buzilishlari qo‘shilib kelgan mujassam nuqsonli bolalarning rivojlanish jarayonidagi murakkabliklar, ularning psixofiziologik, ijtimoiy va pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. Bolalarni samarali reabilitatsiya qilishda zamonaviy metodlar va multidisiplinar yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari, maqolada bunday bolalar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinib, maxsus ta’lim va reabilitatsiya muassasalarida qo‘llanilayotgan ilg‘or metodika va texnologiyalar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Maqola xalqaro tajribaga asoslanib, mujassam nuqsonlarga ega bolalar uchun samarali yordam strategiyalarini ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: sensor buzilish, tayanch-harakat tizimi, intellekt buzilishi, nutq buzilishi, inklyuziv ta’lim, mujassam nuqsonlar, maxsus ta’lim, reabilitatsiya, psixologik rivojlanish, pedagogik yondashuv, ijtimoiy moslashuv, innovatsion metodlar.

CHILDREN WITH MULTIPLE DISABILITIES, INCLUDING SENSORY, MUSCULOSKELETAL, INTELLECTUAL, AND SPEECH DISORDERS

Abstract: The article examines the development features of children with combined sensory, motor, intellectual, and speech impairments. Their psychophysiological and socio-pedagogical characteristics are analyzed, and modern rehabilitation approaches are proposed. This article examines the characteristics of their psychophysiological development, difficulties in social and psychological adaptation, and important principles of working with them. In addition, the article analyzes the role of modern approaches in working with such children, provides detailed information about advanced methods and technologies used in special education and rehabilitation institutions. The article also includes effective support strategies for children with dual-system disabilities, based on international experience.

Key words: sensory impairment, motor disorders, intellectual disabilities, speech disorders, inclusive education vision disorders, hearing disorders, physical disabilities, special education, rehabilitation, psychological development, pedagogical approach, social adaptation, innovative methods.

25-Mart, 2025-yil

ДЕТИ МНОЖЕСТВЕННЫМИ НАРУШЕНИЯМИ, ВКЛЮЧАЯ СЕНСОРНЫЕ, ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНЫЕ, ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ И РЕЧЕВЫЕ НАРУШЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития детей с комплексными нарушениями: сенсорными, двигательными, интеллектуальными и речевыми. Анализируются их психофизиологические и социально-педагогические характеристики, предлагаются современные подходы и методы реабилитации. В данной статье рассматриваются особенности их психофизиологического развития, трудности социальной и психологической адаптации, а также важные принципы работы с ними. Кроме того, в статье анализируется роль современных подходов в работе с такими детьми,дается подробная информация о передовых методах и технологиях, используемых в специальных образовательно-реабилитационных учреждениях. В статье также представлены эффективные стратегии поддержки детей с двойной системой инвалидности, основанные на международном опыте.

Ключевые слова: сенсорные расстройства, опорно-двигательный аппарат, интеллектуальные нарушения, речевые нарушения, инклюзивное образование. физические недостатки, специальное образование, реабилитация, психологическое развитие, педагогический подход, социальная адаптация, инновационные методы.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va jahon tajribasida murakkab nuqsonli bolalar sonining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bunday bolalarda sensor buzilishlari, tayanch-harakat tizimi muammolari, intellektual rivojlanishdagi cheklovlar va nutq buzilishlari bir vaqtning o‘zida uchraydi. Bu holat maxsus pedagogik yondashuvni, kompleks reabilitatsiya dasturlarini va psixologik qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Maqolada ana shu yo‘nalishdagi dolzarb muammolar yoritiladi.

Mazkur maqola sensor tayanch-harakat, intellekt va nutq buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bunda bunday nuqsonli bolalarning rivojlanish jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy omillar, ularning ehtiyojlari va imkoniyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, maxsus ta’lim va reabilitatsiyada qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlar, pedagogik metodlar va ijtimoiy moslashuv mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Maqolada xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan samarali uslublar, bunday bolalarga moslashtirilgan dasturlar va texnologiyalar ko‘rib chiqiladi. Ushbu masala pedagoglar, psixologlar, logopedlar, ijtimoiy xodimlar hamda ota-onalar uchun muhim bo‘lib, maqolada ko‘tarilgan masalalar mazkur toifadagi bolalarning sifatli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya bo‘lishlari uchun ko‘maklashish usullari yoritiladi.

25-Mart, 2025-yil

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Psixofiziologik va individual xususiyatlar.Murakkab nuqsonli bolalarda ko‘rish va eshitish cheklovleri ularning kognitiv rivojlanishini cheklaydi. Bunday bolalar informatsiyani to‘liq qabul qila olmaydi, idrok va tafakkur jarayonlari sustlashadi. Jismoniy faoliyatdagi cheklovlar mustaqil harakat va muvozanatni saqlashda muammolar tug‘diradi. Intellektual rivojlanishdagi cheklovlar esa muloqotda, o‘qish va yozishda orqada qolishiga sabab bo‘ladi. Nutq buzilishlari esa ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishni qiyinlashtiradi.

Pedagogik yondashuv va metodikalar.Individual va differensial yondashuv asosida tuzilgan mashg‘ulotlar bolalar rivojida katta rol o‘ynaydi. Vizual, kinestetik, audiovizual va interaktiv texnologiyalar asosida qurilgan darslar samaradorlikni oshiradi. Logopedik mashg‘ulotlar, psixomotorik rivojlanish, muvozanatni saqlash mashqlari, musiqiy terapiya va ijodiy faoliyat orqali bolalarning o‘zini anglash darajasini va ijtimoiy faolligini kuchaytirish mumkin.

Zamonaviy reabilitatsiya usullari.Multidisiplinar yondashuv asosida reabilitatsiya jarayoni tashkil qilinadi. Bunda defektolog, logoped, psixolog, fizioterapevt va ergoterapevt hamkorligi muhimdir. Sensorli xonalar, moslashtirilgan trenajyorlar, robototexnika vositalari, virtual simulyatorlar va IT-texnologiyalardan foydalanish reabilitatsyaning yangi darajasini yaratadi. Akvatika, ipoterapiya, art-terapiya, hayvonot terapiyasi va sport faoliyatları bolalar uchun nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oila va jamiyatning o‘rni.Oila bolani rivojlantirishda asosiy tayanch bo‘lib, uy sharoitida doimiy mashg‘ulotlarni olib borishi, bolaning har bir yutug‘ini rag‘batlantirish uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Jamiyat esa muhitni inklyuziv va ochiq shakllantirishi kerak. Bolalar uchun maxsus ijtimoiy loyihamar, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va jamoaviy treninglar tashkil etilishi lozim.

Ijtimoiy integratsiya va inklyuziya.Ijtimoiy hayotga moslashuv uchun bolalarni ijtimoiylashtirish dasturlari, maxsus tayyorlangan pedagoglar va psixologlar bilan ishslash zarur. Moslashtirilgan maktablar, markazlar va reabilitatsiya muassasalari bu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarga nisbatan sabr-toqat, tushunish va hurmat muhitini yaratish ularning jamiyatga moslashuvini osonlashtiradi.

Xulosa.Mujassam nuqsonli bolalar bilan ishslashda zamonaviy yondashuvlar, kompleks reabilitatsiya va oilaning faol ishtiroki muhim omil hisoblanadi. Bunday bolalarning rivojlanishida ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati juda katta. Ta’lim jarayonida individual yondashuvni qo‘llash, maxsus moslashtirilgan dasturlardan foydalanish, pedagoglar va psixologlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ota-onalar va yaqin qarindoshlarni doimiy ravishda maslahat va treninglar orqali ma’lumot bilan ta’minlash, ularning farzandlariga nisbatan yondashuvini ijobiy tomonqa o‘zgartiradi. Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan maxsus reabilitatsiya markazlari va qo‘llab-quvvatlash markazlarini ochish, jamiyatda nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish lozim. Shuningdek, ilmiy izlanishlarni davom ettirish,

25-Mart, 2025-yil

yangi pedagogik va psixologik metodlarni joriy etish, innovatsion texnologiyalar asosida yangi usullarni sinovdan o‘tkazish orqali sohada yutuqlarga erishish mumkin. Xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish esa reabilitatsiya samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Астапова Н.А. Коррекционная педагогика и психология. – М.: Академия, 2022.
2. Миронова С.Г. Специальная психология детского возраста. – СПб.: Речь, 2021.
3. UNICEF va WHO tavsiyalari asosidagi reabilitatsiya metodlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Defektologiya va logopediya bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar.